

**Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti, katta o'qituvchisi Usmonov Azamat Jo'raboyevich taqrizi ostida**

**Abduxoliqova Marjona Ixtiyor qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Maktab menejmenti yo'nalishi talabasi  
91 567 44 66

[marjonaabduxoliqova1@gmail.com](mailto:marjonaabduxoliqova1@gmail.com)

**Ablyakimova Refide**

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Maktab menejmenti kafedrasida katta o'qituvchisi  
99 554 92 64

[refideablyakimova@gmail.com](mailto:refideablyakimova@gmail.com)

---

## **RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHDA TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

**Annotatsiya:** Jahonning rivojlangan davlatlari va Xalqaro tashkilotlari 2030 yilgacha yangi ta'lim konsepsiyasini qabul qilgan bo'lib, unda «ta'lim tizimini boshqarishni, ta'lim sifatini uni baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish» dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish mehanizmi maqolada joy olgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim majmui, ta'lim tizimini boshqarish, kadrlar salohiyati, oliy ta'lim, davlat ta'lim standartlari.

Jahonda ta'lim xizmatlarining qamrov ko'lami hamda sifat jihatidan o'zgarishi «inson omili»dan foydalanishda yangi bosqichga o'tishni namoyon etib, bu ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi ta'lim xizmatlarining individuallashuvi, tor sohalar bo'yicha ixtisoslashuvi hamda ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifatining buyurtmachilar talabi asosida ortib borishi mazkur o'zgarishlar bilan bog'liq holda yuz bermoqda.

Mamlakatning rivojlanish istiqbolini, birinchi navbatda, kadrlar salohiyati va undan foydalanish darajasi belgilab beradi. Respublikamizda olib borilgan islohotlar jarayonida kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek<sup>1</sup>, «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz».

Oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini ta'minlash maqsadida jahon ta'lim standartlari talablariga mos keluvchi mutaxassislarni tayyorlash va ilmiy salohiyat darajasini ko'tarish bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlarning tajribasini o'rganib, respublikamiz davlat ta'lim standartlaridan kelib chiqqan holda, ilmiy tadqiqotlar olib borish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligini yanada rivojlantirish asosida ularning sifat darajasini ko'tarish va samaradorligini ta'minlash lozim.

Zero bu kabi vazifalarni bartaraf etmasdan turib, oliy ta'lim tizimida zamonaviy bilim va tayyorganlikka ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni ijobiy hal etish mushkuldir.

---

<sup>1</sup>Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi / O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza // Xalq so'zi, 2016 yil 8 dekabr

“Oliy maktabning bosh missiyasi<sup>2</sup> – tez o‘zgaruvchan dunyo sharoitlarida ijtimoiy-iqtisodiy o‘shish, inson potentsiali darajalarining doimiy o‘shishi, zamonaviy dunyo talab va sharoitlariga tayyor va ishlashga qodir raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlash, shaxs, jamiyat va davlat ta’lim ehtiyojlarini qanoatlantirish, o‘zini o‘zi rivojlantiruvchi, samarali oliy ta’lim tizimini shakllantirishni ta’minlash uchun sharoitlar yaratish o‘zgarishsiz qoladi”.

Hozirgi davrda har bir mamlakat raqobatbardoshligi avvalo, uning ta’lim va fan darajasiga bog‘liq. Iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining zamonaviy holati inson faoliyatining kasbiy va kasbiy tayyorgarlik sifati darajasiga har qachongidan ham ko‘proq talablar qo‘ymoqda. Zamonaviy xodimning ma’lum bir ish faoliyatiga moslik darajasini baholash borasidagi talablar doimiy ravishda o‘zgarib va kuchayib bormoqda. Bunda “Kasbiy kompetentlik” sifatida uning nafaqat kasbiy bilimlari, malaka va ko‘nikmalari, balki mantiqiy fikrlashi, tashabbuskorligi, uddaburonligi, guruhda ishlash va hamkorlik qilishga bo‘lgan qobiliyati, ma’lumotlilik va boshqa sifatleri muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi sharoitda oliy ta’lim muassasalarida kadrlarni boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy jihatlari va yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi zarur:


- mutaxassisliklar va kasblar bo‘yicha pedagogik kadrlar bilan ta’minlanganligini o‘rganish va unga baho berish;
- oliy ta’limda innovatsion faoliyatni tashkil etish borasida samarali huquqiy bazaning mavjudligiga erishish;
- o‘quv jarayoni samaradorligining to‘g‘ri hisoblanganini, uning o‘quv normalarida to‘g‘ri aks etganini aniqlash;
- ta’lim muassasalarida innovatsiyalarni yaratish va ishlab chiqarishga joriy etishda korxonalar va tashkilotlar qiziqishini hisobga olish;
- oliy ta’lim muassasalari faoliyatida o‘quv jarayonini tashkil etish holati va uning darajasiga baho berish;
- ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilar mehnatini rag‘batlantirish va o‘quv jarayoni bilan bog‘liq psixologik vaziyatga odilona baho berish;
- sohada mutaxassisliklar bo‘yicha pedagogik kadrlar zaxiralarini aniqlash, ulardan yanada to‘laroq va samaraliroq foydalanish choralari ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir (3.1-rasm).

Global va milliy darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’siri natijasida OTM boshqaruv tizimida transformatsion jarayonlar kuchayib bormoqda. Ushbu transformatsion jarayonlar faqat boshqaruv tizimi bilan cheklanmasdan, OTMlarning barcha funktsional faoliyat yo‘nalishlarini qamrab olayotganligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, bugungi kunda OTMlar faoliyatini tashkil etish modellarida jiddiy o‘zgarishlar yuz bermoqda, degan xulosaga kelish mumkin.

Kadrlar salohiyatini innovatsion rivojlantirishning barcha funktsional elementlari umumiy boshqaruv vazifasining samarali hal etilishini ta’minlaydi. Bunday vazifa mohiyatan eng yaxshi variantlardan birini tanlash haqidagi masalani hal qilishda real va kutilgan darajalar o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf qilishdan iborat.

---

<sup>2</sup>Xodiev B.IU. Prioriteti razvitiya vysshego obrazovaniya // Podgotovka obrazovannogo i intellektu-alno razvitogo pokoleniya – kak ajneyshee uslovie ustoychivogo razvitiya i modernizatsii strany. Sbornik statey mejdunarodnoy konferentsii. 16-17 fevralya 2012 goda. –T., 2012. – S. 36-40



**3.1-rasm. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga ta'sir ko'rsatuvchi omillar<sup>3</sup>**

Kadrlar salohiyatini innova $\pi$ ion rivojlantirishning umumiy maqsadi xo'jalik faoliyati sohasida uning oldiga qo'yiladigan barcha vazifalarning tizim xodimlari tomonidan kafolatlangan tarzda bajarilishi sifatida ifodalab berilishidir. Bunda kadrlar salohiyatini innova $\pi$ ion rivojlantirish modelini tuzish bir (boshqaruvchi) tizimning boshqa (boshqariluvchi) tizimga maqsadga muvofiq bo'lgan, uning tarkibini o'zgartirishga yoki uni ushbu holatdan boshqa holatga o'tkazishga yoki boshqariluvchi tizimning o'zi tomonidan yoxud yuqori turuvchi tizim tomonidan belgilangan nisbatini o'zgartirishga yo'naltirilgan ta'sir etish jarayoni sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

Ta'kidlash joizki, professional mehnat sohasida muvaffaqiyatga erishish boshqaruv faoliyatida turli xildagi vazifalarni hal qilish natijalari bilan belgilanadi. Rahbar bu erda ehtimoliy muammoli vaziyat yuzaga kelishining eng muhim tarkibiy qismini topishi lozim. Kadrlar salohiyatini innova $\pi$ ion rivojlantirish modelini tuzish sohasida uni aniqlash va o'z vaqtida bartaraf qilish xo'jalik yurituvchi sub'ekt raqobatbardoshligini oshirishning ichki vazifasi deb hisoblanishi mumkin. Ushbu vazifani hal etish rahbarning boshqaruv faoliyatini optimallashtirish mohiyatini ifodalaydi.

Jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni etakchi xorijiy ta'lim muassasalarida tayyorlash faoliyatimizning asosiy yo'nalishlaridan biri. Ana shu maqsadda o'tgan yil "El-yurt umidi" jamg'armasi hamda oliy ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorlik va grant dasturlari doirasida 1345 nafar professor-o'qituvchi xorijiy oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalariga malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun yuborildi. Ularning 579 nafari Evropa, 172 nafari Amerika, 82 nafari Osiyo, 512 nafari MDH mamlakatlarida tahsil olmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish maqsadida 2021 yilda 1793 nafar xorijlik mutaxassis mahalliy o'quv jarayoniga jalb qilingan bo'lib, ularning 481 nafari Evropa, 97 nafari Amerika, 263 nafari Osiyo, 952 nafari MDH mamlakatlari professor-o'qituvchilari va soha mutaxassislardir.

<sup>3</sup>Muallif ishlanmasi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida oliy o'quv yurtlari uchun milliy iqtisodiyotga zarur bo'lgan oliy malakali mutaxassislarini tayyorlash uchun zarur bo'lgan darajada kadrlar tayyorlashni ob'ektiv shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda davlat tomonidan belgilab berilishi zarur bo'lsa, kontrakt to'lovlari asosida esa oliy ta'lim tizimidagi oliy o'quv yurtlariga qabul qilish kvotasini shakllantirish darajasi ular tomonidan belgilanishi zarur deb hisoblaymiz.

Oliy ta'lim tizimida oliy ma'lumotli mutaxassislarini tayyorlovchi oliy o'quv yurtlarining kontrakt to'lovi asosida qabul kvotalarini tayyorlashda ichki vaziyatlardan ya'ni qabul qilingan abituriyentlarni o'qitish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlardan kelib chiqishlari kerak.

Ta'lim xizmatlari sohasida o'z-o'zini boshqarishning bozor mexanizmlari samarali echaolmagan muammolarni davlatning tartiblash mexanizmlari vositasida echish imkoni mavjud. Masalan, bozor mexanizmlari vositasida ta'lim xizmatlari sohasida vujudga kelgan daromadlarni taqsimlashda, ta'lim xizmatlariga narx-navoni belgilashda tomonlar o'rtasida turli xil ziddiyatlar, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin.

Ta'lim xizmatlari taklif etuvchilari (ta'lim muassasalari) va iste'moli (aholi) o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishni davlat o'zining zimmasiga oladi. Masalan, ta'lim xizmatlari iste'molchilari uchun narxning past bo'lishi, ta'lim muassasalari uchun esa aksincha, narxlarning baland bo'lishi yuqori manfaat keltiradi. Natijada ular o'rtasida ta'lim xizmatlari iste'moli jarayonida ziddiyat vujudga keladi. Davlat esa, bir tomondan jamiyat taraqqiyotidan manfaatdor sub'ekt sifatida ta'lim xizmatlari sohasidagi tadbirkorlarni manfaatlarini himoya qilsa, ikkinchi tomondan iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirishdan manfaatdor. Davlatning ta'lim xizmatlari sohasini tartibga solishning muhim yo'nalishlaridan biri - soha amal qilishi va faoliyat yuritishini boshqarishni takomillashtirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasida maktabgacha va oliy ta'lim tizimi qamrov darajasini oshirish, ta'lim, sog'liqni saqlash va davlatni ijtimoiy himoya tizimini xalqaro standartlarga o'tkazish, demografik o'sish omilini iqtisodiy o'sish drayveriga o'tkazish orqali mehnat unumdorligini oshirish, BMT "Barqaror rivojlanish maqsadlari"da nazarda tutilgan barcha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish orqali inson kapitali va aholi turmush darajasini yaxshilash belgilab berildi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

kamida besh nafar mahalliy oliy ta'lim muassasalarini xalqaro QS Rankings, Times Rankings, ARWU kabi reytinglarga kirishini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini baholash tizimiga TQM standartlarini joriy etish:

masofaviy ta'lim olish tizimini kengaytirish, chet elning etakchi universitetlarida doktorantlar va magistrantlarni tayyorlash tizimi tajribasini mahalliy OTM larga tadbqiq etish, oliy ta'lim xizmatlari qamrov darajasini oshirish (tertiary enrollment), ilmiy izlanishlarni tijoratlashtirish uchun maxsus "buyurtmachi-tadqiqotchi-investor" zanjirini yaratish va iqtisodiyotda ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishni rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llash;

masofaviy ta'lim tizimi ma'yoriy huquqiy bazasini ishlab chiqish, maktab o'quvchilari bilimni baholashning PISA, PIRLS va TIMSS xalqaro dasturlaridan foydalanish va respublikaning ushbu tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan monitoringlarida muntazam ravishda qatnashishini ta'minlash;

yoshlar o'rtasida adabiyot, publika va rassomchilik sohasida «onlayn» tadbir va tanlovlarni o'kazish, mahalliy hamda xorijiy adabiyotlardan bepul foydalanish imkonini yaratuvchi «onlayn» kutubxonalarini keng joriy etish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan 5 ta tashabbusni davom ettirish.

Ta'lim tizimida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ta'lim muassasalarining sifatini oshirishdan iborat. Ta'lim sifati uni iste'molchiga ko'rsatuvchi ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etishga bog'liqdir. Ayni paytda ta'lim sifatini oshirish yo'li bilan uning raqobatbardoshligi ta'minlanadi. Ta'lim tizimining raqobatbardoshligi bu ta'limning talablarga javob berish qobiliyati va ularning bozorda sotilishidir. Ushbu jarayonlar asosida ma'lum tavsifdagi ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlarini beruvchi hususiyatlar yotadi.

Ta'limning raqobatbardoshligi ularni boshqa shu turdagi ta'lim muassasalariga solishtirish asosida aniqlanadi. Bu asosan quyidagi ikki parametr orqali amalga oshiriladi: ta'limning aniq ehtiyojga mosligi va bu ehtiyojni qondirish xarajatlari. Ta'lim tizimining raqobatbardosh bo'lishi, ya'ni talabni qondirishi uchun ularning sifati iste'molchiga mos kelishi lozim. Shunday qilib, ta'lim tizimi sifati ularning bozorda raqobatbardoshligini

ta'minlovchi etakchi omildir. Hozirgi davrda mamlakatimiz ta'lim tizimi iqtisodiy munosabatlarini takomillashtirishning zarurligi fan-texnika taraqqiyoti, iqtisodiy globallashuv va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash bilan bog'liqdir. Shu bilan birga ta'lim majmuasini ustuvor rivojlantirish iqtisodiy o'sishining yuqori sur'atlariga erishish asosida aholi farovonligini oshirishning zaruriy sharti bo'lib hisoblanadi. Hozirgi davrda milliy, mintaqaviy va jahon miqyosida ta'lim tizimi shakllanib bormoqda. Bu holat ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha ikki paradigma o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishiga olib kelmoqda. Bular oliy ta'limni tashkil etish va rivojlantirishga akademik va bozor nuqtai nazaridan yondashuvlardir. Ushbu ziddiyatning echimi bu ikki yondashuvning sintezidan foydalanish, ular o'rtasidagi oqilona nisbatni topish orqali xal etilishi mumkin.

Bizning fikrimizcha oliy ta'lim tizimida malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash shu bilan birga dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masala bo'lib, oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil etishning yangicha yondashuvlarini joriy etish, kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlanish dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlarini davlat tomonidan tartibga solinishi amalga oshirilmoqda. «Ta'limning me'yoriy-huquqiy asoslari rivojlanmoqda. Ta'lim muassasalarining ta'lim jarayonini tashkillashtirish va moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritishdagi huquq va erkinligini kengaytirish ta'minlanmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. / O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. // Xalq so'zi. 2016 yil 8 dekabr.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. [Elektron manba]: [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz).
3. Axunova G. O'zbekistonda ta'lim xizmatlari marketingi muammolari. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. – T.: Iqtisod-Moliya, 2005 y. – 244 b.;
4. Akbarov A.M. Shakirova N.A. Kadrlar salohiyatini innovatsion rivojlantirish modeli (Yaponiya tajribasi misolida) “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2019 yil 1 2/2019 (№ 00040) [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz). 7 B.
5. Maxmudov M. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. // Diss. PhD. – T.: TDIU. 2019. 20-21-b.
6. Odilov E.T. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazoratni takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. T., TDIU. 2012, 26 bet.